



АКТУАР МОЛИЯ ВА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Vol. 4 Issue 01 | pp. 142-147 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HOZIRGI HOLATI HAMDA UNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA SOHANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Uzakov Utkir Abdusattarovich

TIFT mustaqil izlanuvchi,

Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar Universiteti "Iqtisodiyot va boshqaruv" kafedrasida katta o'qituvchisi

e-mail: utkir.uzoqov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining hozirgi holati, hamda uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va sohaning o'ziga xos xususiyatlari, savdo korxonalarining yanada rivojlanishida zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llagan holda vaqt va mehnat unumdorligiga erishish, shuningdek savdo korxonalarining buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish bayon qilingan.

Tayanch so'zlar: Savdo, savdo korxonalari, buxgalteriya hisobi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, jahon savdo tashkiloti, filial va vakolatxonalar, ulgurji, chakana.

THE CURRENT STATE OF ACCOUNTING IN TRADE ENTERPRISES AND THE PRIORITY DIRECTIONS OF ITS DEVELOPMENT AND SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE FIELD

Uzakov Utkir Abdusattarovich

TIFT Independent Researcher,

Senior lecturer of the "Economics and Management" department of the Tashkent International University of Financial Management and Technologies

Abstract: In this article, the current state of accounting in trading enterprises, as well as the priority directions of its development and specific features of the industry, the achievement of time and labor productivity with the wide use of modern technologies in the further development of trading enterprises, as well as the adaptation of accounting of trading enterprises to international standards are described.

Keywords: Trade, trade enterprises, accounting, International Financial Reporting Standards, world trade organization, branches and representative offices, wholesale, retail.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ УЧЕТА НА ТОРГОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ, ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЕГО РАЗВИТИЯ И ОСОБЕННОСТИ ОБЛАСТИ

Узаков Уткир Абдусаттарович

Независимый исследователь ТИФТ,
Старший преподаватель кафедры «Экономика и менеджмент» Ташкентского
международного университета финансового менеджмента и технологий

Аннотация: В данной статье рассмотрено современное состояние бухгалтерского учета на торговых предприятиях, а также приоритетные направления его развития и особенности отрасли, достижение производительности времени и труда при широком использовании современных технологий в дальнейшем развитии торговых предприятий, а также описана адаптация бухгалтерского учета торговых предприятий к международным стандартам.

Ключевые слова: Торговля, торговые предприятия, бухгалтерский учет, Международные стандарты финансовой отчетности, Мировая Торговая Организация, филиалы и представительства, оптовая, розничная торговля.

1. KIRISH

Savdo sohasi bilan o'zi azal-azaldan ota-bobolarimiz shug'ullanib kelishgan, shuningdek bu soha anchagina serdaromad va unumli soha sanaladi, hamda bu soha bilan shug'ullanuvchilarning kasbi barakali kasb hisoblanadi. Hozirgi tez rivojlanib borayotgan jamiyatimizda har bir soha kabi savdo sohasi xususan savdo korxonalari ham juda jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Bu esa o'z navbatida ushbu sohaning buxgalteriya hisobini hozirgi holatini tahlil qilishga, uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va sohaning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqishga undaydi. Savdo korxonalari buxgalteriya hisobining me'yoriy huquqiy asosi albatta O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni hisoblanadi, xususan ushbu qonunning 2-moddasida ta'kidlanganidek, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir [1.1]. Shuningdek xalqaro savdo korxonalarining O'zbekistondagi filial va vakolatxonalari, yurtimizdagi savdo korxonalarining xalqaro miqyosdagi ish va munosabatlari, umuman olganda xalqaro miqyosidagi hamma uchun mos keladigan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) ishlab chiqilgan hamda amalda keng qo'llanib kelinmoqda. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir yurtboshimizning qarori ham chiqqan [2.1].

2. TADQIQOT METADOLOGIYASI

Maqolaning metodologik asoslarini O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezidentimizning qaror va farmonlari, asarlari va ma'ruzalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, buxgalteriya hisobiga oid milliy va xalqaro standartlar, Nizomlar, yo'riqnomalar, xorijda va respublikamizda chop qilingan ilmiy ishlar, darsliklar va qo'llanmalar, ilmiy maqolalar, internet tarmog'i materiallari hamda izlanishlar olib borilgan korxonalarining amaliy materiallari tashkil etadi.

3. MUHOKAMA VA NATIJALAR

Savdo tovar-pul munosabatlarining majmuasidir. Ushbu munosabatlarda bir tomondan sotuvchi, ikkinchi tomondan esa sotib oluvchi ishtirok etadi. Tovar-pul

munosabatlari majmuasi savdoni iqtisodiyotning maxsus tarmog'i darajasida harakat qilishiga olib keladi.

Savdo faoliyatini turli belgilari bo'yicha guruhlash mumkin.

Amal qilish hududiga ko'ra savdo faoliyati ichki va tashqi savdoga bo'linadi.

Ichki savdo-bir mamlakat hududi chegarasida amalga oshiriladigan savdo faoliyati.

Tashqi savdo-mamlakat ichida ishlab chiqarilgan mahalliy tovarlarni boshqa mamlakatlarga sotish faoliyati. Tashqi savdo faoliyati, boshqachasiga eksport deb ham ataladi [3.1].

Savdo shuningdek, tovarlar savdo-sotig'ini amalga oshirish va unda qo'llaniladigan hisob—kitoblarning shakliga ko'ra ulgurji va chakana savdo turlariga bo'linadi.

Savdo sohasi faoliyati eng keng tarqalgan faoliyat turlarida biri sanaladi. 2024-yilning 1-fevral holatiga jami 305 976 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ulardan 111888 tasi savdo sohasi to'g'ri keladi[4.1].

Savdo sohasining hozirgi kundagi eng keng tarqalgan va rivojlanayotgan turi bu elektron tijorat, ya'ni internet-do'konlar yoki online-marketlar, shuningdek turli internet platformalar orqali savdolarni amalga oshirish hisoblanadi. Elektron tijoratlarining buxgalteriya hisobi ham oddiy savdo korxonalarining buxgalteriya hisobidan deyarli farq qilmaydi.

Savdo korxonalari bir-birlaridan tovar operatsiyalarining tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirish bo'yicha ham farq qiladi. Xususan, ulgurji savdo korxonalarida tovar-moddiy boyliklarning kirim va chiqimi tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Chakana savdo korxonalarida esa har bitta tovar operatsiyasini hujjatlashtirib bo'lmaydi. Chakana savdoda asosan tovarlar naqd pulga, ayrim hollarda kichik ulgurji shaklda naqtsiz sotilishi mumkin.

Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobining muhim vazifalaridan biri, tovar-moddiy boyliklarning holati va harakati bo'yicha sintetik va tahliliy hisobni yuritish hisoblanadi. 21-sonli BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma"ga muvofiq tovarlarning sintetik hisobini barcha savdo korxonalarida quyidagi schyotlarda olib borish nazarda tutilgan.

2910 "Ombordagi tovarlar". Ombordagi tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarida hisob bahosi bo'lib tannarx, ya'ni sotib olish bahosi (tayyorlov-transport va boshqa sotib olishga doir xarajatlar bilan birgalikdagi) hisoblanadi.

2920 "Chakana savdodagi tovarlar". Chakana savdo shoxobchalari (savdo do'kon, palatka, laryok, kioska va boshqalar)dagi tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarining chakana savdo shoxobchalarida hisob bahosi bo'lib sotish bahosi, ya'ni savdo ustamali bilan birgalikdagi hisoblangan chakana baho hisoblanadi.

2930 "Ko'rgazmadagi tovarlar". Ko'rgazma zallariga qo'yilgan tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2940 "Vaqtincha foydalanishga (prokatga) berilgan tovarlar". Vaqtincha foydalanishga (prokatga) berilgan tovarlarning qoldig'i va ko'payishi debetida, kamayishi

esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2950 “Tovar ostidagi va qaytariladigan idishlar”. Tovar ostidagi va qaytariladigan taralarning qoldig‘i va ko‘payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarida hisob bahosi bo‘lib tannarx, ya‘ni sotib olish bahosi yoki o‘rtacha hisob bahosi hisoblanadi.

2960 “Komissiya (vositachilik) orqali sotishga berilgan tovarlar”. Shartnomalar asosida boshqa korxonalariga komissiya va konsignatsiya shartnomalari asosida berilgan tovarlarning qoldig‘i va ko‘payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2970 “Yo‘ldagi tovarlar”. Guvohlik beruvchi boshlang‘ich hujjatlari asosida hisobga kiritilgan lekin oy oxirida yo‘lda bo‘lganligi uchun omborlarga kirim qilinmagan tovarlarning qoldig‘i va ko‘payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi.

2980 “Savdo ustamasi”. Hisob bahosining tarkibiy elementi, chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridagi tovarlarning sotib olish baholari ustiga qo‘yilgan savdo ustamalarining qoldig‘i va ko‘payishi kreditida, kamayishi esa debetida aks ettiriladi. Ulgurji savdo korxonalarida faqat chakana savdo shoxobchalaridagi tovarlar bo‘yicha qo‘llaniladi.

2990 “Boshqa tovarlar”. Yuqoridagi schyotlarda aks ettirilmay qolingan tovarlarning qoldig‘i va ko‘payishi debetida, kamayishi esa kreditida hisob bahosida aks ettiriladi [3.2].

Shuningdek tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) buxgalteriya hisobi tartibi va ularni xarajatlarga kiritish paytida ular tannarxini hisoblash 4-sonli BHMS “Tovat-moddiy zaxiralar” [5.1] bilan tartibga solinadi.

Tovat-moddiy zaxiralarini baholashda ularning tannarxi yoki sof sotish qiymatidan kichigi bo‘yicha baholanishi lozim.

Xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi

Tovar-moddiy zaxiralar tashkilotning buxgalteriya balansiga tannarxi bo‘yicha kiritiladi hamda ular:

- xarid qiymatini (etkazib beruvchiga to‘lanadigan summa) va
 - xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlarni o‘z ichiga oladi.
- Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:
- bojxona bojlari va yig‘imlari;
 - tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan soliq va yig‘imlar summolari (agar ular qoplanmasa, hisobga olishga qabul qilinmasa);
 - tovar-moddiy zaxiralar ta‘minotchi va vositachi tashkilotlar orqali xarid qilinganda ularga to‘lanadigan to‘lovlar (vositachilik haqi);
 - tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralarni sertifikatlash va ularni texnik shartlarga muvofiq sinash bo‘yicha xarajatlar;
 - tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va ularni ayni paytdagi joylashish yoki foydalanish joyiga yetkazib berish bo‘yicha transport-tayyorlov xarajatlari. Ular tayyorlash, yuklash-tushirish ishlari va tovar-moddiy zaxiralarni barcha turdagi transport bilan ularni ayni paytdagi joylashish yoki foydalanish joyiga transportda tashish uchun (fraxt) to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha xarajatlar, shu jumladan tovar-moddiy

zaxiralarni transportda tashishda xatarlarni sug'urtalash bo'yicha xarajatlardan tashkil topadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga boshqa xarajatlar ham kiritilishi mumkin.

TMZlar tannarxini baholash usullari 4-sonli BHMSga binoan, tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlari va chiqib ketayotgan (ishlab chiqarishga berilgan) tovar-moddiy zaxiralar qiymatini aniqlash quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:

- Tegishli birlikning identifikatsiyalangan tannarxi usuli;
- FIFO- birinchi navbatda sotib olingan tovarlarning tannarxi usuli;
- AVECO- o'rtacha tortilgan qiymat usuli.

Tashkilot tomonidan aloxida tartibda foydalaniladigan (qimmatbaxo metallar, qimmatbaxo toshlar va xokazo) va bir-birining o'rnini bosmaydigan (ya'ni ular odatdagi xolda bir-birini almashtira olmaydi), shuningdek maxsus loyixalar uchun ishlab chiqarilgan va mo'ljallangan (ishlatiladigan) tovar-moddiy zaxiralar **tegishli birlikning identifikatsiyalangan tannarxi usuli** bo'yicha baxolanadi.

Ushbu usulda spetsifik xarajatlar muayyan tovar-moddiy zaxiralarga taalluqli bo'ladi. Aks ettirishning ushbu usuli, ular sotib olinganligi yoki ishlab chiqarilganligidan qat'i nazar, maxsus loyixalar uchun mo'ljallangan maxsulotlarga to'g'ri keladi.

FIFO usuli-(ya'ni birinchi kelib tushgan - birinchi bo'lib sotiladi) keng tarqalgan va afzal usul hisoblanadi. Bu usul birinchi navbatda sotib olingan tovarlarning tannarxi birinchi navbatda sotilgan yoki sarflangan tovarlar tannarxiga o'tkazilishi lozimligini nazarda tutadi.

FIFO usuli tovarlarning haqiqiy jismoniy siljishidan qat'i nazar har qanday tarmoq korxonalarida qo'llanilishi mumkin, chunki u tovarlarni siljishini emas, balki ular qiymati harakatini hisobga oladi. Inflyatsiya davrida FIFO usuli qo'llanilsa, sof foydaning eng yuqori darajasiga erishiladi.

O'rtacha tortilgan qiymat usuli (AVECO)-TMZning o'rtacha qiymatlarda baholanishiga asoslangan. O'rtacha qiymat sotilish yoki sarflanishga mo'ljallangan barcha tovarlar qiymatini mazkur tovarlar miqdoriga bo'lib aniqlanadi.

Savdo korxonalarida tovarlar kirim-chiqimi juda ko'plab sodir bo'lganligi sababli ularning soni va summasini to'g'ri yuritish muhim hisoblanadi. Buning uchun ularni sanab qoldiqlarni xar doim to'g'ri olib borish kerak bo'ladi. Savdo korxonalarida tovarlarni inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish tartibi 19-son BHMS "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish"ga asosan amalga oshiriladi.

4. XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, buxgalteriya hisobi savdo korxonalarining iqtisodiy siyosatini shakllantirishning eng muhim bo'g'ini, savdo jarayonlarini boshqarishning asosiy mehanizmlarida biri hisoblanadi.

Takliflarim shundan iboratki, savdo korxonalarida, xususan ba'zi bir chakana savdoda tovarlarni sotib olish va sotishni yanada hujjatlashtirish ya'ni shartnoma tuzish, hisob-fakturaga yoki shunga o'xshash xujjatlar qilish. Misol uchun odatda, bozordan konditsioner sotib olishda hech qanaqa shartnoma yoki hisob-faktura qilinmaydi. Shu masalada ham yaxshilab o'ylab, to'g'ri qaror qabul qilish kerak.

Elektron savdo korxonalar sonini ko'paytirish yo'li bilan aholi uchun imkoniyatlarni

yanada yaxshilash kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni 13.04.2016 y. №404, <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-181-son Qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-6480161>
3. M.B.Kalonov, A.T.Maxkamboyev, F.T.Temirov "Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari" O'quv qo'llanma. T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa", 2021-180 b.
4. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/51051-qaysi-sohada-mas-uliyati-cheklangan-jamiyatlar-ko-proq-faoliyat-yuritmoqda>
5. 4-sonli BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar" O'zR. Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda 3259-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. <https://lex.uz/docs/-4890446>
6. 19-sonli BHMS "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish" O'zR. Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 2-noyabrda 833-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan <https://lex.uz/acts/812952>
7. 21-sonli BHMS "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma" O'zR. Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 23-oktabrda 1181-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan. <https://lex.uz/acts/417624>
8. X.O'. Po'latov "Elektron savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil etish", "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal. Elektron nashr. 1302 sahifa, 5-dekabr, 2023-yil. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/210/201>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

